

# “Hayrat ul-abror” dostonining boblar bo`yicha tavsifi

## Reja:

1. Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi birinchi doston “Hayratu-l-abror” asari tuzilishi
2. Dostonning boblari tahlili

*Ushbu sahifada Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi birinchi doston “Hayratu-l-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”)ning asliyati bilan nasriy bayoni va ilk marta taqdim etilayotgan Abduhamid Pardayev tomonidan amalga oshirilgan dostonning she`riy tabdili bilan tanishishingiz, ularni mutolaa qilishingiz mumkin. Dilnavoz Yusupovanning dostonining g`oyaviy-badiiy xususiyatlariga bag`ishlangan maqolasi esa sizga ko`makchi bo`lishiga ishonamiz.*



Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi birinchi doston “Hayratu-l-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) 1483 yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo`lib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan tashkil topgan. Shundan Kirish (muqaddima) 21 bobni o`z ichiga oladi.

Dostonning birinchi bobi Qur`oni karimdagi bosh ilohiy jumla “Bismillohir rahmonir rahim” (“Mehribon va rahmli Olloh nomi bilan boshlayman”)ning poetik sharhiga bag`ishlangan. Bu bob nafaqat “Hayratu-l-abror” uchun, balki umuman “Xamsa” uchun ham kirish vazifasini o`taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlaning uchratmaymiz. Hazrat Navoiy bu jumlaning ikki nuqtai nazardan tahlil qiladi, ya`ni qabul qiluvchilar va rad etuvchilar. Bunda ushbu jumladagi har bir harfga alohida ma`no yuklatiladi. Dastlab rad etuvchilarga to`xtalinar ekan, ushbu jumladagi har bir harfning bu toifa kishilarini jazolantirishga xizmat qildirilganligini ko`ramiz. Xususan, “س” – “sin” harfi haqida gapirilganda, uning shakli nahang balig`ining umurtqa suyagidagi arradek bo`lib, rad etuvchilar uchun ofatdek; “م” – “mim” harfi ilon nafasidek o`t sochib, yo`l boshida og`zini ochgan holda yotadi degan tashbehlardan foydalaniladi. Shu tariqa Navoiy ushbu jumladagi qolgan harflarni ham ushbu maqsadga xizmat qildiradi va kitobot (harf) san`atining betakror namunasi yaratadi.

Ikkinchi toifa, ya`ni qabul qiluvchilarga to`xtalinganda endi bu harflarning ijobiy ma`no kasb etishini kuzatamiz. Xususan, “س” “sin” harfi endi salomatlik yo`lining zinasiga o`xshatilsa, “م” – “mim” harfining maqsad manzilidagi buloq boshiga nisbat berilganligini ko`ramiz. Bularning barchasida Navoiyning yuksak badiiy salohiyati namoyon bo`ladi. Dostonning ikkinchi bobi Xoliq, ya`ni Olloh hamdiga bag`ishlanadi. Mazkur bobda shoir hamma

narsani yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o‘simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bog‘lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlaydi. Alisher Navoiy “Uning zoti lutf va safodan iborat, lekin vafo isi unga begona” degan fikrlarni ilgari surar ekan, bu o‘rinda tasavvuf ta’limoti asosida fikr yuritilayotganligi ma’lum bo‘ladi.

Dostonning 3-6 boblari (to‘rt bob) munojotlarni o‘z ichiga oladi. Munojotlarda dunyodagi barcha mavjudotlar o‘z yaratganiga doim sajda qilishi zarur, Xudoning qahri kelsa, “ko‘k bir etak kul” kabi sovurilib ketishi hech gap emasligi ta’kidlanadi. Shuning uchun insonlar o‘ylab ish qilishi, gunoh qilishga yo‘l qo‘ymasligi, qiyomat kunini unutmashligi, har bir gunoh uchun qiyomat kuni jazo olajagini esda tutishi, islom dini qoidalariga to‘la rioya qilishi zarurligi uqtiriladi. Navoiy oxirgi munojotda Xudoga murojaat qilib, gunohlarini kechirishini so‘raydi:

*Garchi gunahning hadu poyoni yo‘q,  
Aylamasang rahm ham imkoni yo‘q.*

Adabiy an’anaga ko‘ra munojotdan so‘ng payg‘ambar madhiga, ya’ni na’tga o‘tiladi. Dostonda 5 ta na’t keltirilgan. Birinchi na’tda tasavvuf ta’limotidagi “Nuri Muhammadiya” nazariyasiga to‘xtalinar ekan, ushbu nazariyadagi “Odam Ato unga ham o‘g‘il, ham ota” degan tushuncha ta’rifi beriladi. “Nuri Muhammadiya”ga ko‘ra Alloh barcha olamlarni yaratishdan oldin Muhammad nurini yaratgan bo‘lib, shu nur tufayli olamni va odamni yaratgan. Demak, Odam Ato ham Muhammad nuridan bino qilingan. Shuning uchun hazrati Muhammad (s.a.v) Odam Atoga ham ota, ham o‘g‘ildir:

*Bo‘ldi sanga Odami sabqatnamo,  
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar o‘lsa Ato.*

Keyingi na’tlarda payg‘ambarning bolaligi, payg‘ambarlik davridagi faoliyati, noyob insoniy xususiyatlari, me’roj tuni ta’riflari keltiriladi.

Dostonning 12-bobi ulug‘ salaflar Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan. Dastlab Nizomiyga ta’rif berilar ekan, uning ismidagi harflar abjad hisobiga ko‘ra 1001 soniga teng kelishi jihatidan Xudoning 1001 ismiga hamohang ekanligi aytiladi. Ishtiqoq (o‘zakdosh so‘zlarni keltirish) va iyhom (baytni ikki xil ma’noni qo‘llash) san’atlari vositasida u yaratgan xazina (“Xamsa”)ga ta’rif beriladi:

*Ganja vatan, ko‘ngli aning ganjhez,  
Xotiri ganjuru tili ganjrez.*

Xusrav Dehlaviy madhi keltirilganda esa uning ismidagi “xusrav” so‘zining podsho ma’nosini bildirishi Dehlaviyning so‘z podshosi sifatida hind mulkini obod qilganligi, uning har bir dostoni Hindistonning bir o‘lkasiga teng ekanligi bilan izohlanadi:

*Nazmi savodi aro har doston,  
O‘ylaki, bir kishvari Hinduston.*

13-bob Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhini o‘z ichiga oladi. Navoiy Nizomiy va Dehlaviyini bir bobda ta’riflagani holda ustoz va do‘sti Abdurahmon Jomiyga alohida bob bag‘ishlaydi. Uni o‘sha davrning “qutbi tariqati” deb atar ekan, o‘zining unga nisbatan ojiz va muhtojligini g‘oyat kamtarlik bilan bayon qilsa, Jomiyning yangi yozgan biror asarini o‘zidan oldin hech kim ko‘rmasligini faxr bilan keltirib o‘tadi:

*Nomag‘akim roqim etib xomasin,  
Ko‘rmasdi men ko‘rmayin el nomasin.*

“Hayratu-l- abror” dostonining yozilishida aynan Jomiyning “Tuhfatu-l-ahror” dostoni turki bo‘lganligini aytiladi:

*Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,  
Qaysi guhar, “Tuhfatu-l-ahror” edi...*

*Chun o‘qimoq zamzamasi bo‘ldi bas,  
Ko‘nglum aro dag‘dag‘a soldi havas.*

*Kim bu yo‘l ichraki alar soldi gom,  
Bir necha gom o‘lsa manga ham xirom.*

Dostonning 14-15-boblari so‘z ta‘rifiga bag‘ishlangan. Hazrat Navoiy so‘zning buyukligini “kun” (yaryl) so‘zining olam va odamni yaratishda vosita bo‘lganligi bilan dalillaydi:

*Dahr muqayyad bila ozodasi,  
Borcha erur “kof” ila “nun” zodasi.*

*Zodasidin zoda bo‘lub beadad,  
Zodaga ham volid o‘lub, ham valad.*

Alisher Navoiy bu o‘rinda so‘zning mahsuli bo‘lgan adabiy turlar haqida ham to‘xtalar ekan, nazm va nasrga alohida ta‘rif beradi, nazmni nasrdan ustun qo‘yib, gulshanda gullarning saf tortib turishini nazmga, sochilib, to‘kilib yerda yotishini nasrga o‘xshatadi. Shoirning e’tiroficha, nazm bu qadar e‘zozlanmasa, Tangri so‘zida she‘r bo‘lmas edi:

*Bo‘lmasa e‘joz maqomida nazm,  
Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm.*

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda turkiy tilda she‘r aytishga kuchli ishtiyoq sezishini va bu yo‘lda ancha yuqori darajaga erishganini faxr bilan bayon qiladi.

Dostonning 16-bobi zamona sultoni Husayn Boyqaro madhini o‘z ichiga oladi. Alisher Navoiy bu bobda talmeh san‘ati vositasida Husayn Boyqaroni kuch-qudratda Firdavsiy qahramoni Rustamga, adolat va fazlu kamolda Eronning afsonaviy podshosi Jamshidga o‘xshatadi.

17-bob “Ko‘ngul ta‘rifida” deb nomlanadi. Bu bobda Navoiy qudratli dehqon (Xudo) ilk tongda insonni yaratgandan keyin unga ko‘ngul ato etganini bayon qilar ekan, ko‘ngulni yurak bilan adashtirmaslikka chaqiradi. Shoirning fikricha, yurak savdogarda ham bor, lekin uning butun fikri-yodi savdoda. Yaratganning yodi bilan yashaydigan insondagina haqiqiy ko‘ngul bo‘ladi va ugina “ahli dil” sanalishi mumkin. Shuningdek, Navoiy ko‘ngulni olami kubro, Ka‘badan-da ulug‘ joy deb ataydi.

Muqaddimaning qolgan uch bobi (18-20 boblar) hayrat ta‘rifiga bag‘ishlangan. Bu boblarda Xoja, ya‘ni ko‘ngulning avval mulk (narsalar) olamiga, keyin malakut (farishtalar) olamiga va nihoyat so‘ngida “ajoyib bir shahar” (inson tanasi)ga sayohati bayoni keltiriladi va bu sayohat ko‘ngulning o‘zligini tanib, inson tanasiga kirgani tasviri bilan yakunlanadi. Alisher Navoiy bu o‘rinda “o‘zligini bilgan Xudoni ham biladi” g‘oyasini ilgari suradi:

*Nafsg‘a chun orif o‘lub mo‘-bamo‘  
Foyiz o‘lub “qad arafa rabbahu”.*

Muqaddimaning so‘nggi 21-bobi Xoja Bahouddin Naqshband va uning xalifasi Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag‘ishlangan. Alisher Navoiyning muqaddimadagi so‘nggi bobni aynan shu shayxlarga bag‘ishlashi shoirning naqshbandiya suluki vakili ekanligiga ishora edi. Bob o‘z ichida ikki qismga ajratiladi, birinchi qism 15 baytdan iborat bo‘lib, uning deyarli har bir baytida naqsh so‘zining turli holat va shakllarda ishtiyoq (o‘zakdosh so‘zlarni keltirish) va tanosub

(ma'no va mohiyat jihatidan bir-biriga yaqin so'zlarni keltirish) san'atlari vositasida qo'llanilganligini ko'ramiz. Navoiy Bahouddin Naqshbandni yuksak martabali naqqoshga, uning ta'limotini muhtasham va dilkash naqshga o'xshatadi:

*Xojaki naqqoshi sipehri baland,  
Bo'lg'ali har safhasig'a naqshband.*

*Ayladi avroq munaqqash base,  
Naqsh raqam ayladi dilkash base.*

Bobning ikkinchi qismi naqshbandiya tariqatining o'sha davrdagi mashhur pirlaridan biri Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag'ishlangan. Navoiy uni murshidi ofoq (yo'l boshlovchi pir) deb ulug'lar ekan, shohlar unga qulluq qilishga o'zlari keladilar, hatto haqiqat sirlaridan ogohlar ham uning huzurida hushlaridan judo bo'ladilar deb yozadi:

*Yuz qo'yubon qullug'ig'a shohlar,  
Bazmida bexud o'lub ogohlar.*

Alisher Navoiy bobni ulug' shayx faoliyatiga yuksaklik tilash va uning himmatidan bahramandlik umidi bilan yakunlaydi va bu umid bevosita muqaddimaga ham yakun yasaydi:

*Qo'yimasun ayvoni jahonni tih,  
Dabdabai ko'si Ubaydullahi.*

*Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,  
Faqr yo'lida g'ani, imong'a boy.*

Dostonning 22-bobidan asosiy qism boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o'z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o'z fikr- mulohazalarini bayon qiladi, so'ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. Shu tariqa asosiy qism 20 maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar bayoni tarzida davom etadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Мақолот номи	Ҳикоят
Иймон шарҳида	Шайх Боязид Бистомий ва унинг муриди ҳақидаги ҳикоят
Ислом бобида	Иброҳим Адҳам ва Робия Адвия ҳақидаги ҳикоят
Салотин (султонлар) зикрида	Шоҳ Ғозий ҳикояти
Хирқа кийган рикор шайхлар хусусида	Абдулла Ансорий ҳақидаги ҳикоят
Карам (хайру эҳсон) васфида	Ҳотами Тойи ҳикояти
Адаблилик тўғрисида	Нўширавон ва Наргис ҳақидаги ҳикоят
Қаноат бобида	Қаноатли ва қаноатсиз икки дўст ҳақидаги ҳикоят
Вафо бобида	Икки вафоли ёр ҳикояти
Ишқ ўти таърифида	Шайх Ироқий ҳақидаги ҳикоят
Ростлиқ таърифида	Шер билан Дуррож ҳикояти
Илм осмонининг юлдузлардек баланд мартабалилиги ҳақида	Имом Розий ва Хоразмшоҳ ҳақидаги ҳикоят
Қалам ва қалам аҳллари ҳақида	Ёқут ҳақидаги ҳикоят
Булутдек фойда келтирувчи одамлар ҳақида	Айюб ва ўғри ҳақидаги ҳикоят
Осмон тузилишида шикоят	Искандар ҳақидаги ҳикоят
Жаҳолат майининг қуйқасини ичадиганлар ҳақида	Исроиллий ринд ҳақидаги ҳикоят
Хунасасифат олифталар ҳақида	Абдуллоҳ Муборак ҳақидаги ҳикоят
Баҳор йигитлигининг софлиги ҳақида	Зайнобиддин ва унинг ўғли ҳақидаги ҳикоят
Фалак ғамхонаси ҳақида	Гўзал малика ва унинг ошиғи ҳақидаги ҳикоят
Хуросоннинг мисли йўқ вилояти баёнида	Баҳром ва боғ ҳақидаги ҳикоят
Мақсаднинг ўталгани ҳақида	Хожа Муҳаммад Порсо ҳақидаги ҳикоят

Eng avvalgi maqolat iymon sharhiga bag'ishlanadi. Bu bejiz emas, zero dostonning bosh g'oyasi komil inson timsolini vashf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir:

*Kimki jahon ahlida inson erur,  
Bilki nishoni anga iymon erur.*

Alisher Navoiy “Kimdagi iymonning uch belgisi bo‘lsa, u haqiqiy insondir” deydi va bu belgilar sifatida sabr, shukr va hayoni ko‘rsatib o‘tadi:

*Bas ani inson atag‘il beriyo,  
Kim ishidur sabr ila shukru hayo.*

Komil inson ta‘rifidan keyin iymon sharhiga to‘xtalib o‘tiladi. Hazrat Navoiy iymonning 6 sharti sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadi:

- 1) *Haqning borligiga iymon keltirish;*
- 2) *farishtalarga iymon;*
- 3) *Allohning so‘zlari bo‘lgan muqaddas kitoblarga iymon;*
- 4) *Payg‘ambarlarga iymon;*
- 5) *qiyomat kuniga iymon;*
- 6) *taqdiri azalga iymon.*

Ushbu fikrlardan so‘ng Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoyatda bir kuni Shayx Boyazid Bistomiydan g‘amginlik sababini so‘ragan muridiga shayx bu dunyoda haqiqiy insonlar kamayib ketganligidan xafaman deb javob beradi. Shunda muridi shayxni haqiqiy insonlar safida deb hisoblashini aytganida, shayx o‘zini ham yuz ming sarson-sargardonlar qatorida sanashini, agar bu dunyodan iymon bilan ketmas ekan, inson sanalmasligini aytadi. Hikoyatda diniy mazmundan tashqari tasavvufiy qarashlar ham mavjud bo‘lib, bunda tariqatdagi xavf maqomi haqida so‘z boradi, deb aytish mumkin. N.Komilovning “Tasavvuf” kitobida yozilishicha, xavf tariqatning 6-maqomi bo‘lib, bunda solikning nafs makridan qo‘rqishi, shayton nayrangining ko‘ngilga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shunday kuchli dushmanki, solik tariqatdagi tavba, vara’, zuhd, faqr, sabr kabi maqomlarni egallagan bo‘lishiga qaramay, nafsning iymonga daxl qilishi mumkinligidan doim xavfda bo‘ladi.

Alisher Navoiy keyingi maqolatlarda ham birinchi maqolatda keltirilgan bosh mavzu – komil insonga xos sifatlar bayonini davom ettiradi. Xususan, 5- maqolat karam va saxovat, 6- maqolat adab, 7-maqolat qanoat, 8-maqolat vafo, 10-maqolat rostgo‘ylik ta‘rifidadir. Bu maqolatlar orasida 7-maqolat badiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiyning fikricha, kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zebu ziynatlarni boylilik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylilik qanoat xazinasidir:

*Kimgaki ish bo‘ldi qanoat fani,  
Bilki, ani qildi qanoat g‘ani.*

*Ganji tajammulni g‘ino bilmagil,  
Balki g‘ino ganji qanoatni bil.*

Mazkur maqolatda qanoat tushunchasi chiroyli tashbehlar va tamsillar vositasida ifodalab berilganligini ko‘ramiz. Masalan, osmon qanchalik katta bo‘lmasin, u bitta kulcha, ya‘ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko‘z doim shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va ko‘z singari bo‘lishlari kerak. Maqolatda kitobot (harf) san‘atining ham yetakchilik qilishini kuzatish mumkin:

*Qushlar aro shohki, anqo durur,  
Nuktaye bu amrda paydo durur.*

*Bordur agar fikr ila topsang vuquf,  
Qoni‘yu anqog‘a muvofiq huruf.*

Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi. Bunda ma‘lum bir ma‘no bor. Agar fikr bilan voqif bo‘lishni istasang, “qoni” va “anqo” so‘zlarining yozilishida harflar bir-biriga muvofiqdir. Yoki

*Shoh boshining sharafi toj emas,  
Angla ani shohki, muhtoj emas.*

*Shoh agar ul bo'lsaki, muhtojdur,  
Harf ila muhtojda ham tojdur.*

Shoh boshining sharofati tojdan emas, kimki muhtoj bo'lmasa, o'shani shoh deb tushun. Muhtojni ham shoh deb atash mumkin bo'lsa, harf nuqtai nazaridan "muhtoj" so'zida ham "toj" bor-ku!

Maqolatga "Qanoatli va qanoatsiz ikki do'st" haqidagi hikoyat ilova tarzida keltirilgan. Hikoyatda keltirilishicha, ikki do'st Fors mulkidan Chin mamlakati tomon yo'lga tushadilar. Biri taqdir berganiga qanoatli inson bo'lib, ikkinchisi ochko'z, tama'gir edi. Yo'lga ketayotib, bir toshga ko'zlari tushadi. Uning yarmi yer ostida bo'lib, yarmi yer yuzasiga chiqib turardi. Tosh ustida: "Kimki mehnat qilib toshni aylantirib qo'ysa, ostidagi afsonada vayrona tagida bekitib qo'yilgan xazina haqida yozib qo'yilgan. Kimki bu mashaqqat, azob uqubatlarni xohlamasa, uning uchun sabru qanoat hammasidan yaxshiroqdir" degan yozuv bitilgan edi. Ochko'z yigit yozuvni o'qigach, xazina ilinjida tosh ostini qazishga tushib ketadi. Qanoatli odam esa beparvo tarzda shahar tomon yo'l oladi. Shaharga kiradigan bir necha darvoza bo'lib, u shaharga birinchi bo'lib kiradi. Shahar aholisining odatiga ko'ra, mamlakat podshosi qazo qilsa, darvozadan birinchi kirgan odamni podshoh qilib ko'tarar ekanlar. Shu tariqa bu do'st o'z qanoati tufayli mamlakatga podshoh bo'ladi. Uning tosh ostini qaziyotgan do'sti esa og'ir mehnatni bajarib bo'lgach, toshni ag'darib qarasa, "Xom tama' bu dunyoda alam chekadi" deb yozib qo'yilgan ekan. Xulosa shuki, qanoatli inson o'z sabru qanoati tufayli shoh martabasiga erishadi, qanoatsiz inson esa tama' ilinjida xoru zor bo'ladi.

"Hayratu-l-abror" dostonida xotima ham o'ziga xos o'ringa ega. Dostonning 62-63-boblari hazrat Navoiyning xulosa va yakuniy fikrlarini o'z ichiga oladi. 62-bobda Navoiy dostonni yaratish orzusidan boshlab uni tugatgunicha bo'lgan jarayon haqida yozar ekan, dostonni yozish xayoli unga tinchlik bermagani, elu yurt xizmati, xalq arz-dodini tinglash uni asosiy maqsaddan chalg'itsa-da, Xudoning o'zi unga marhamat ko'rsatib, nihoyat bu ulug' muddaoni poyoniga yetkazganini betakror tashbehlar vositasida bayon qilib beradi. Bob so'ngida Navoiy g'oyat nazokat va kamtarlik bilan agar yozganlari elga manzur bo'lmasa, uni afv etishlarini so'rab, Allohga iltijo qiladi:

*Jilva ber el ko'ziga ham xo'b ani,  
Qilg'il ulus ko'ngliga marg'ub ani.*

*Har nechakim, jurmum erur pech-pech,  
Lekin erur rahmating olinda hech.*

63-bobda oyog'i toyib ketib, kosadagi oshni shohning boshiga to'kib yuborgan va olijanob shohning xijolatdan o'lar holatga yetgan bu qulni afv etgani haqidagi hikoyat beriladi va bu hikoyat bevosita 62-bobga hamohang tarzda, unga ilovadek keltiriladi. Navoiy Allohni olijanob shohga, o'zini oyog'i toyib ketgan qulga o'xshatar ekan, shunday yozadi:

*Har necha ko'p bo'lsa gunohim mening,  
Shukrki, bor sendek ilohim mening.*

*Xijlat ila qolmadi xud jom manga,  
Yeri durur aylasang ehson manga.*

"Hayratu-l-abror" dostonida kun tartibiga qo'yilgan masalalar bevosita "Xamsa"ning keyingi dostonlarida ham davom etadi, xususan, komil insonga xos adab, qanoat, karam va saxovat, futuvvat, rostlik, vafo kabi xislatlar bilan bog'liq masalalar "Farhod va Shirin" dostoni, "Sab'ai

sayyor” tarkibidagi hikoyatlar, “Saddi Iskandariy” dostonlarida yangicha talqin topganligini ko‘ramiz.

Doston aruz tizimining sari’ bahri – sari’i musaddasi matviyi makshuf (ruknlari va taqti’i: muftailun muftailun foilun – VV – / – V V – / – V – ) vaznida yozilgan. Bu vazn pandu nasihat mazmunidagi fikrlarni bayon qilishga nihoyatda qulay bo‘lganligi sababli doston uchun asosiy she’riy o‘lchov vazifasini o‘tagan.



**ALISHER NAVOIY**  
**HAYRAT UL-ABROR**  
**Abduhamid Pardayevning she’riy tabdili**

---

**I**

Bismilloh deb so‘zim boshlarman takror,  
Bismillohda ming bir teran hikmat bor.

Duru gavhar kabi ming jondan a’lo,  
Ming jon neki, jumla jahondan a’lo.

A’lodan ham a’lo jahon rishtasi,  
Bag‘oyat bebaho ming jon rishtasi.

Kim mangulik sari cho‘zar qo‘lini,  
Bismilloh keng ochar uning yo‘lini.

Bismillohni tildan qo‘ymasa hamon,  
Davlatu din nasib etar begumon.

Sira ham o‘rtanmas armon dog‘ida,  
To abad yayragay jannat bog‘ida.

Aqbovar qilmas sirli bayot bu,  
Ming bir dardga darmon obi hayot bu.

Bamisoli mangu hayot bulog‘i,  
Jannat kabi obod bor so‘lu sog‘i.

Mo‘jizalar sodir etar sarbasar,  
Alloh rahmatiga qilar muyassar.

Sira ham tengi yo‘q iqbol timsoli,  
Arshi a’lo uzra qandil misoli.

Qandil ichra biyron bulbul yayraydi,  
Mangulik qo‘shig‘in tinmay sayraydi.



Saodat qasriga eltar ravon yo‘l,  
Fazilati uning g‘oyat mo‘ldan-mo‘l.

Lekin mashaqqati juda ziyoda,  
Bu yo‘ldan yurolmas har kim dunyoda.

Imoni but zotlar tolmaydi sira,  
Imonsizlar yura olmaydi sira.

Yaratganning lutfi garchi beaded,  
Imonsizga sira ham bermas madad.

“Bo”si xitob qilar faqat ibodan\*,  
“Yo”si ogoh etar ming bir balodan.

*\*Bu va bundan keyingi misralarda «Qur‘on»ning boshlanishidagi birinchi oyat – “Bismilloh” so‘zining yozilishiga tegishli harflar izohi berilmoqda.*

“Sin”i go‘yo nahang baliq arrasi,  
Yuz kema ofati har bir parrasi.

Ming bir zahmat “sin”u “mim” orasida,  
O‘tolmas bu yo‘ldan g‘o‘r norasida.

“Mim”i go‘yo ilon kabi o‘t sochar,  
Yo‘l boshida yotib og‘zini ochar.

Uch “alif”, uch “lom”i juda beomon,  
Qilich yalang‘ochlab kelar begumon.

Qatlga shaylanar “ho”larning uchi,  
Beshafqat nayzadan qolishmas kuchi.

“Ro”lari to zarba uchun chog‘lanar,  
Zarba bersa g‘ofil dillar dog‘lanar.

“Ho”si hamla bilan halok ham qilar,  
Sira shafqat qilmay dillarni tilar.

“Nun”i bamisoli dushman yarog‘i,  
Hamisha ishga shay dehqon o‘rog‘i.

“Yo”si yovga qarshi aylagay nido,  
Qoshimda joningni qilgin der fido.

Nuqtalari go‘yo yo‘l uzra toshlar,  
Toshlar dema, go‘yo kesilgan boshlar.

“Mim”lari tugilgan necha bir joydan,  
Niyatlar sarbaland oftobu oydan.

Undosh harflar kelar takror va takror,  
Sezar darhol kimki bersa e‘tibor.

Har negakim noziri maqsud o‘lub,  
Ahli nazar ko‘ziga mardud o‘lub,

Imon ahli lekin o‘zin chog‘lasa,  
Yaxshi niyat bilan belin bog‘lasa,

“Bo”si eng avvalo bashorat bo‘lar,  
Ichkari kirgani ishorat bo‘lar.

“Sin”i salomatlik yo‘lin zinasi,  
Hatto baxtu iqbol tiniq oynasi.

“Mim”i ochar maqsad sari katta yo‘l,  
Tog‘ chashmasi degin hatto suvi mo‘l.

“Alif”lari g‘oyat ravondan-ravon,  
Tashna ko‘ngillarni qilar charog‘on.

“Lom”lari bamisli zafar yalovi,  
G‘olib ko‘ngillarning otash-olovi.

“Ho” bilan aylagay ming sirdan ogoh:  
“Alloh shohanshohlar uzra shohanshoh!”

Jannat bog‘lariga eshik “ro”lari,  
Vahdat g‘unchasiga beshik “ho”lari.

“Mim”i topar to “nun” bilan nihoya,  
O‘z bag‘rini o‘rtar u benihoya.

“Yo” bilan “mim” toki birga qo‘shilar,  
Himmat ummonida birga eshilar.

Nuqtayu undoshlar mudom chorlaydi,  
“Alif”lari yulduz bo‘lib porlaydi.

Halqa solar nogoh ko‘ngil bo‘yniga,  
Abadiyat joylar jonning qo‘yniga.

Ming bir madad elni zabardast qilar,  
Maqsad sari barcha qat‘iy qasd qilar.

Bag‘rini keng ochar ba‘zan nogahon,  
Teran o‘ylash uchun berar u imkon.

Mo‘minlarning bahri dili ochilar,  
Gardidan atrofga jonlar sochilar.

Bosh-oyog‘i boshdan-oyoq jon bo‘lar,  
Jon demagin hatto u jonon bo‘lar.

Ko‘ngillarga tushar gar dog‘ uzra dog‘,  
Har qadamda xursand qilar turfa bog‘.

Dog‘ ustiga tushar dog‘ qahri bilan,  
Bog‘ ketidan kelar bog‘ mehri bilan.

Qahri bilan garchi barbod aylagay,  
Mehri bilan yana obod aylagay.

Ey Navoiy, sirli navo istasang,  
Ming bitta dardingga davo istasang,

Yo‘lni yaxshi-yomon dema sira ham,  
“Bismilloh” deb dadil qo‘ygaysan qadam.

Benazir fazilat himmatu karam,  
Himmat bilan bo‘lar bor el muhtaram.

## II

*Barcha yaratilgan jonli va jonsiz narsalarni tasavvur etish uchun qalamining san'atkorligi chehrasini ochgan va hikmatli qalami jamolini orttirish hamda har bir ko'ngil g'unchasiga bir husn guli tomon uning shavqi zanjiriga bog'liklikni va har ko'zining yulduziga bir qoshi hilol bilan muhabbat ipi orqali payvastalikni yuzaga keltirgan ul Xoliq hamdi*

Yaratgan sha'niga kabirdan-kabir,  
Zarralar ham tinmay aytadi takbir.

Misoli munavvar oftob yagona,  
Atrofida jumla jahon parvona.

Jismlar osmonin masrur qilar u,  
Ruhlar dunyosini ma'mur qilar u.

Samo gulshanini orasta qilgan,  
Yulduzlardan go'zal guldasta qilgan.

Samo ichra gulday ochilar ular,  
Har tomon gul kabi sochilar ular.

Poyoni yo'q samo moviy pardaday,  
Juft taxtadan tashkil topgan nardaday.

Ma'mur bo'lsin deya samo kun-tuni,  
Oy va oftob bilan bezagan uni.

O'n ikki burj tinmay aylananar mudom,  
Turfa manzil sari shaylanar mudom.

Oftob kezar samo uzra kun bo'yi,  
Yulduzlar raqs tushar unda tun bo'yi.

Zaminda ro'y berar gunohu savob,  
Samovot qa'rida aks etar shitob.

Tasodif va taqdir misoli g'anim,  
Yaxshi-yomon g'ayrat qilar betinim.

Tong ohista ochar jamolin gulin,  
Qirq kokil aylagay tunning sunbulin.

Nihoyat bor jahon nur bilan to'lar,  
Nur bilan payvasta hur bilan to'lar.

Ming turfa rang bilan jahonni bezar,  
Jahon ichra mudom bor jonni bezar.

Bulbul kabi biyron qilib har tilni,  
Aql nuri bilan yoritar dilni.

Inoyat piligi uning rishtasi,  
Haqiqat ziyosi yorqin shu'las.

Ko'ngil bo'lar gar bu shamdan charog'on,  
O'chirar ishq yeli uni begumon.

Ishq bilan gar dilni obod aylagay,  
Lekin aql qasrin barbod aylagay.

Qalbida otashin ishqning sharori,  
Oshiqning qolmas sabru qarori.

Aqlu tafakkurning qolmas nishoni,  
Boshida charx urar balo bo'roni.

Dardu balo o'ti alanga olar,  
Oshiq ahli ming bir zahmatdan tolar.

Yurak-bag'rin o'rtar ming bitta armon,  
Faqat yor visoli dardiga darmon.

Oshiqning jondan ortiq suydirar,  
Bor jahonni oftob kabi kuydirar.

Uni jannat kabi bir bo'ston degin,  
Jannat ichra go'zal guliston degin.

Jilvasi baxsh etar jonga oroyish,  
Maxzun ko'ngilga baxsh etar osoyish.

Lutfu safo ichra garchi yagona,  
Lekin mehru vafo mangu begona.

Sira topib bo'lmas vafodan nishon,  
Vafodorlar bag'rin o'rtar beomon.

Vafo bo'lsa kimning sodiq yo'ldoshi,  
Ko'zidan to'xtamay oqadi yoshi.

Kim jahon ahliga vafo aylagay,  
Jahon ahli jabru jafo aylagay.

Ishq dardiga jonni payvasta qilar,  
Visol bilan dilni orasta qilar.

Hijron dashti ichra ming bitta xatar,  
Barcha giyohlari misoli nashtar.

Lolalari go'yo alangali oh,  
Barcha o't-o'lani zaharli giyoh.

Zaharli har giyoh har jonga ofat,  
Otash shamolidan ming bir talofat.

Alangayu otash biyobon o‘ti,  
Nainki biyobon, bu hijron o‘ti.

Hijron o‘ti qay bir jonni kuydirar,  
Kulini ko‘k uzra shitob sovurar.

Kimlarni kul qilar beomon balo,  
Bedavo ming dardga aylar muhtalo.

Sira shafqat qilmas muhabbat dardi,  
Hatto bas kelolmas odamzot mardi.

O‘zgacha tartiblar tuzilmaydi hech,  
Nizomlar rishtasi uzilmaydi hech.

Barbod qila olmas hech bir zizila,  
Silsilaga payvand barcha silsila.

Samo ichra zamin azal yagona,  
Boshi uzra ming bir yulduz parvona.

Ummonlar mavji gar samoga yetar,  
To‘lqinlari yana zaminga qaytar.

Lutfi bilan olam mavjud bo‘ldi,  
Qahri bilan yana nobud bo‘ladi.

### III

#### BIRINCHI MUNOJOT

*Alloh birinchi bo‘lib, aql uning ikkinchisini bilmaydi, hatto birinchi va oxirgi insonlar kimnidir yoki nimanidir maqtamoqchi bo‘lsalar, bunda loyiq boshqasi topilmaydi va dunyodagi bo‘lishi mumkin bo‘lgan gulshandagi gullarning yo‘qlik kechasidan borliq gulistoniga kelmog‘ining sifati va koinot bozoridagi durlarning maxfiylik bulutidan zohirlik dengiziga tushganining ta‘rifati*

Yo Rab, o‘zing mangu azaliy zotsan,  
To abad bezavol ham barhayotsan.

Xoliqi olamsan yakka-yagona,  
Ibtido-intiho senga begona.

Avval ham o‘zingsan, oxir ham o‘zing,  
Botin ham o‘zingsan, zohir ham o‘zing.

Nihon edi bir payt bor jumla jahon,  
“Nihon”ning o‘zi ham jahondek nihon.

Na olamga kunning chiroyi ayon,  
Va na uzun tunlar sehri namoyon.

Na samoda alvon shafaq ko‘rinar,  
Va na yulduzlardan shabnamlar inar.

Na zaminu va na unda bir kishi,  
Faqat jabru sitam samo, yer ishi.

Na pari paykarlar olamda paydo,  
Na biron-bir Majnun, biron-bir shaydo.

Sham bilan munavvar bir koshona yo‘q,  
Sham o‘tida kuyar bir parvona yo‘q.

Na bog‘ boru na bog‘ ichra bordir gul,  
Na gul uzra sayrar biron-bir bulbul.

Nainki yumilgan gullarning ko‘zi,  
Olam ichra yo‘q hech gullarning o‘zi.

Mayxonada katta xumlar ochilmas,  
Mo‘minlar xirqasin garovga qo‘ymas.

Nozu ishva bilan soqiylar sarbast,  
Hatto taqvo ahlin qilmagay sarmast.

Na zamonu va na bor edi makon,  
Qay bir puchmoqlarda g‘oyib bor jahon.

Yo Rab, faqat yolg‘iz o‘zing bor eding,  
O‘z husnigga o‘zing sen xushtor eding.

Ko‘zgu ichra husning bilan betimsol,  
Jilva qilar edi sirli bir xayol.

Shaydo o‘zing eding ham manzur o‘zing,  
Oyday husning bilan ham mag‘rur o‘zing.

Yolg‘iz o‘zing hozir eding begumon,  
O‘n sakkiz ming olam barchasi nihon.

Nihon edi qancha sirli ilmlar,  
Mudrar edi qancha sirli bilimlar.

Va lekin sira ham tengi yo‘q jamol,  
Go‘zallik bobida g‘oyat barkamol,

Jumla jahon ichra porlasam derdi,  
Oshiqqlarni mudom chorlasam derdi.

Go‘zaldan ham go‘zal jamoling behad,  
Ko‘zgu talab qilar edi beaded.

Olam paydo qilding sirlarga to‘la,  
Har bir chechak sirli ko‘zgu bir yo‘la.

Oyjamoling har bir gulda aks etar,  
Gullar chamanzorlar ichra raqs etar.

Yaratganday qancha huru malakni,  
Yaratding sen yuksak to‘qqiz falakni.

Har biriga sayqal ham berib chiqding,  
Yulduzlar shodasin ham terib chiqding.

Munavvar aylading oftob yuzini,  
Nur bilan to'ldirding otash ko'zini.

Jannat bulog'idan olib andoza,  
Samo ko'zqusini yaratding toza.

Zamin ichra minglab go'zal bog' qilding,  
Osmono'par yuzlab baland tog' qilding.

Bog'lar mevalari ming dard darmoni,  
Tog'lar bag'ri duru gavharlar koni.

Yomg'ir tomchilarin suvga qo'sharsan,  
Shamol bilan ipak kabi esharsan.

Yellar qanotida har zarra, g'ubor,  
Olam uzra parvoz qilar beg'ubor.

Lolu hayron qilar har bir a'moling,  
Olam ichra jilva qilar jamoling.

Ilohiy xazinaning gar obod edi,  
Barchasidan maqsad odamzot edi.

Teran anglar barcha kaloming sirin,  
Barcha sirlaringni saqlar yashirin.

Inson qalbin qilding sirlar makoni,  
Makoni ne, ming bir asorning koni.

Odamzotga qilding beaded karam,  
Olam ichra qilding g'oyat muhtaram.

Jumla jahon ichra uni shoh qilding,  
G'aroyib sirlardan ham ogoh qilding.

Olimlar belini bog'lading o'zing,  
Ezgu ishlar sari chog'lading o'zing.

Yo Rab, odam ahlin oqil aylading,  
Ming bir sir-asrorga doxil aylading.

Navoiyni ko'ngli toza odam qil,  
Ilohiy gulshaning ichra mahram qil.

Barcha sirlaringga meni yor ayla,  
Ikki olam ichra baxtiyor ayla.

#### **IV**

#### **IKKINCHI MUNOJOT**

*Alloh yaratgan go'zal narsalarning jilvalari zuhuri haqida – lekin bundan o'sha ashyolarni yaratganning o'zining ulug' dargohiga biron foyda yetmaydi va u mavjud go'zallar bilan bog'liq buzug'liq hodisalari to'g'risida bo'lib, bundan donolarning Yagonasi saroyiga biron kimsa zarar yetkazishni xayoliga ham keltirmaydi*

Ilohiy nurlaring, yo Rab, taratding,  
Bor olamni himmat bilan yaratding.

Olam ichra barcha asil, noasil,  
Senga bari sajda qilar muttasil.

Sajdaga bosh qo‘ygan el masjidisan,  
Qiblaga yuzlangan el ma‘budisan.

Sayyoralar kezib yurar samoda,  
Zamin ham muallaq go‘yo havoda.

Xohlasang barchasin obod qilarsan,  
Xohlasang bir zumda barbod qilarsan.

Yulduzlarni mixday qoqib qo‘ygansan,  
Oftobni chiroqday yoqib qo‘ygansan.

Siru asrorlaring elni lol qilar,  
Donolar qaddini hatto dol qilar.

Bag‘ri bo‘lsa hamki samo kabi keng,  
Sen bilan hech bir zot bo‘la olmas teng.

Barchasini qilay desang gar yakson,  
Qahring yakson qilar barin begumon.

Hovuch tuproqdan bor jahon qilmas farq,  
Qahring girdobida bari bo‘lar g‘arq.

Qiyomatdan farqi yo‘q bu manzara,  
Tog‘lar ham tuyaday tortadi na‘ra.

Samo ham sovrilar etak kul kabi,  
Qo‘zg‘alar yulduzlar dasta gul kabi.

Zuhal aqlu hushin butkul unutar,  
Daf‘atan u zavol sari yuz tutar.

Umid rishtalarin uzar Mushtariy,  
Taxta bilan tobut bo‘lar minbari.

Bahrom\* ham tang xoli uchun yig‘lagay,  
Alam bilan yurak-bag‘rin tig‘lagay.

*\* Bahrom – bu o‘rinda Mirrix (Mars) sayyorsi ko‘zda tutildi.*

To‘zon ichra jumla jahon torayar,  
Oftob ham jez tanga kabi qorayar.

Zuhra ham sindirar barcha sozini,  
Faryod solar qo‘yib bor ovozini.

Atorud ko‘ngliga sig‘mas alami,  
Daf‘atan qo‘lidan tushar qalami.

Oyni ham bu holat juda shoshirar,  
Qiyomat zulmatni mudom oshirar.



Alanga avjiga chiqar beomon,  
Olov ichra yonar yulduzli osmon.

Zamin neki, samo ham barbod bo‘lar,  
Barcha ishi fig‘on va faryod bo‘lar.

Vahimaga solar ummonlar mavji,  
Bulutlarga tegar to‘lqinlar avji.

O‘z o‘qidan chiqar zamin banogoh,  
Zamin uzra osmon yiqilar nogoh.

Es-hushin boy berar bor ahli inson,  
Vafo va karamdan qolmas nom-nishon.

Gohida bor zamin yuksalar ko‘kka,  
Yer qoshida samo goh tushar cho‘kka.

Ummon ichra kezar otash g‘avvosday,  
Falak ichra uchar tog‘lar raqqosday.

Bulutlar ko‘pirib bo‘kirar mudom,  
Quturgan podaday o‘kirar mudom.

Tog‘u falaklarda dahshatli nido,  
Barcha alam bilan aytar alvido.

Necha fursat davom etar bu ahvol,  
Nihoyat qo‘zg‘olar dahshatli shamol.

Ostin-ustun bo‘lar nogoh bor gardun,  
Daf‘atan qiyomat topadi yakun.

Yana Tangri o‘zi yolg‘iz qoladi,  
O‘zga mavjudotlar tez yo‘qoladi.

Zaminu samoning yo‘qu boridan,  
Bandalar asrori yo izhoridan,

Na-da qudratiga yetar bir ziyon,  
Buyukligi shikast topmas hech qachon.

Jumla jahon mulki qo‘liga kirar,  
Boshin egib yana yo‘liga kirar.

Yo Rab, o‘sha kunga qilsam gar jazm,  
Yo avvalroq qilsam u tomon azm,

Imonimni hamroh qilgin yo‘limda,  
Bo‘lmasin o‘zingdan o‘zga dilimda.

Navoiyni qilib to abad xursand,  
Rahmatingdan qilgin mudom bahramand.

**V**

**UCHINCHI MUNOJOT**

*Olam va odamni vujud koshonasidan yo'qlik faromushxonasiga solmoq vujudi mutlaqdan o'zga vujud turmasligi haqida bo'lib, bu ma'nodagi fikrni vujud ahli (moddiyunlar) boshqa vujudga mutlaqo yaqin keltirmas va isyon zulmatida nazardan qolganlarga Olam yakunining shifoati yordam ko'rsatur va o'sha – shafolat ko'rsatganlarga olam va odamni yaratgan shafolat tilagay*

Yo Rab, qilding qahr va lutfni shior,  
Borni yo'q aylarsan, barcha yo'qni bor.

Hech bir zot yo'q edi sen bor aylading,  
Aql-tafakkurni ham yor aylading.

To'qqiz falak barpo qilding, ey a'zam,  
Zaminni ham paydo qilding muazzam.

Sayyoradan tortib har zarra sodda,  
Barchasi bag'oyat tengi yo'q modda.

Afsungarsan g'oyat mohirdan-mohir,  
Sen yaratgan har bir ashyo javohir.

Obi hayotni ham laziz aylading,  
Odamzotni g'oyat aziz aylading.

Tomchi suvdan cheksiz ummonga qadar,  
Zarradan quyoshu osmonga qadar,

Barchasini g'oyat payvasta qilding,  
Jahonni jannatday orasta qilding.

Bir-biriga ular bari bog'langan,  
Bir-birining vasli sari chog'langan.

Bor jahonni barpo qilding betimsol,  
Yuksak mahobati qilar elni lol.

Jannat bog'idan ham hatto sarishta,  
Yo'q hattoki biron ortiqcha rishta.

Katta ochib do'zax darchasin nogoh,  
Barbod qilay desang barchasin nogoh,

Qodir amring bilan dunyo tor bo'lar,  
Barbod bo'lib yana xoru zor bo'lar.

Jumla jahon bo'lar daf'atan yakson,  
Hech vaqodan qolmas sira ham nishon.

Dengiz kabi jo'shar va lekin mehring,  
Mo'jizalar sodir aylagay sehring.

Vafotidan o'tsa hamki ming bir yil,  
Qolmagan bo'lsa ham boshida bir qil,

Marhumlarga yana jon baxsh etarsan,  
Kimlarga sarbaland shon baxsh etarsan.

Zotan, qabr ichra har ne sochilar,  
Ko'ngil ichra barcha sirlar ochilar.

Ziyoda boshida ming bir tashvishi,  
Qavmu qarindoshdan qochar har kishi\*.

*\* Qur'oni karimning "Abasa" surasidagi "U Kunda kishi o'z og'a-inisidan ham, onasi va atasidan ham, xotiniyu, bola-chaqasidan ham qochur" oyatlariga ishora.*

Bu kabi hech bo'lmas nadomat kuni,  
Nadomat demagin, qiyomat kuni.

Qiyomatgoh ahli asir bo'ladi,  
Ming bir alam bilan basir bo'ladi.

Kimlar armon bilan hatto dod solar,  
Yig'lay-yig'lay hatto dod-faryod solar.

Qiyomat kunining dahshatidir bu,  
Azobu uqubat vahshatidir bu.

Bor gunoh, bor savob ham ayon bo'lar,  
Ogoh bo'lib elning bag'ri qon bo'lar.

Ne qilishni bilmas yuzi qoralar,  
Ming bir armon yurak-bag'rin poralar.

Ona qizga boqmas, o'g'ilga ota,  
Barchaning tilida oh: "Vo hasrato!"

Gunohkorlar ming bir guruh, ming bir to'p,  
Ularning gunohi juda ko'pdan-ko'p.

Armon bilan yurak-bag'ri dog'langan,  
Oyoq-qo'li kishan bilan bog'langan.

Do'zax o'ti avjga chiqar tobora,  
Dahshat solib qilar dilarni pora.

Bir tomonda go'zal jannatning bog'i,  
Yuraklarni o'rtar armonning dog'i.

Qaynoq jazirama qo'ymas salomat,  
Ohu fig'on tortar ahli qiyomat.

Qil ko'prik ham go'yo nozik bir xayol,  
Qil ko'prikdan o'tish juda ham mahol.

Hech kimsani qilmas zinhor norozi,  
Savobu gunohni o'lchar torozi.

Parvardigor o'zi odil hukmron,  
Adolatli har bir hukmi begumon.

Zulm alangasi avjlanar nogoh,  
Qahr girdobi ham mavjlanar nogoh.

Teran o'yga tolar barcha avliyo,  
Hayratda bor nabiy, barcha anbiyo.

Muhammad Mustaf o faqat charx urar,  
“Ummatim!” deb mudom xizmatda turar.

Sirot uzra porlar misoli chaqin,  
Goho toroziga kelar u yaqin.

Behuda ketmasmin der hech himmatim,  
Najot topsin deydi barcha ummatim.

Ko‘ksin qalqon qilib misoli qoya,  
Barcha odamlarni qilar himoya.

Rasul Yaratgandan nelarni tilar,  
Parvardigor birma-bir qabul qilar.

Barcha dardlariga dav o aylagay,  
Barcha tilaklarin ravo aylagay.

Yo Rab, Muhammadni baxtiyor qilding,  
Sen o‘zingga habib qilding, yor qilding.

Qiyomatday g‘oyat og‘ir g‘am kuni,  
Nainki g‘am kuni, zo‘r motam kuni,

Payg‘ambarning ko‘ksin qalqon aylagin,  
Barchaning dardiga darmon aylagin.

Payg‘ambar yolvorib qilganda nido,  
Gunohkorlar aybin kechir, ey Xudo!

Gar bir qavm kelsa bisyor gunohi,  
Ular joyi bo‘lsa jahannam chohi,

Qilmagan tayinli bir ish dunyoda,  
Gunohlari bo‘lsa juda ziyoda,

Gar o‘rtansa yurak-bag‘ri g‘am bilan,  
Fig‘on tortsa ular gar alam bilan,

Istasa gar ular xalosini ham,  
Kechir, yo Rab, menday bir osiyni ham.

## VI

### TO‘RTINCHI MUNOJOT

*Vasf karam daryosi haqida bo‘lib, inoyat nasimi esgach, mavjga kelsa, itoatsizlik xas va xashaklarini qirg‘oqlarga chiqarib tashlaydi va gunoh tog‘idan langar tashlaganlarning sust yuradigan kemasini bir dona pat yoki somon parchasidek maqsad sohiliga yetkazadi*

Marhamating qoshi uzra, yo Alloh,  
Hatto xascha emas tog‘ kabi gunoh.

Xirmon-xirmon bo‘lsa hamki gar somon,  
Barchasin sovurar shamol begumon.

Jumla jahon ahli xato qilsalar,  
O‘z manglayin ular qora qilsalar,

Gunohkorlar bag‘rin qilmasdan pora,  
Barchasin avf etish senga chikora.

Zulmat bilan qoplab bor olamni tun,  
Bani bashar bag‘rin g‘oyat qilar xun.

Lutfing bilan oftob go‘yo barq bo‘lar,  
Oftob nuri ichra jahon g‘arq bo‘lar.

Kim adovat uchun o‘zin shaylagay,  
Sunbulidan gulni nihon aylagay.

Ravshan bo‘lsin deya yaqinu yiroq,  
Kecha ichra oyni qilding shamchiroq.

Gunoh qilmasa gar biron-bir mag‘rur,  
Muruvvat chirog‘i hech socharmi nur?

Haddidan oshsa gar elning yomoni,  
Daf‘atan toshmasmi lutfing ummoni?

Xirqasi toki kir bo‘lmas nogahon,  
Suvga muhtoj bo‘lmas darvesh hech qachon.

Kim yo‘qotsa sharob ichib yo‘lini,  
Nahot hech kim cho‘zmas yordam qo‘lini?

Ertayu kech kimki qilar ibodat,  
Evaziga tilar baxtu saodat.

Jannat ichra mangu qilay deb sayr,  
Bag‘rikenglik bilan qilar kim xayr.

Kim qadahga hatto tekkizmagay lab,  
Kavsar suvin qilar oqibat talab.

Bir bor quchmaganlar go‘zallar aslin,  
Jannat ichra tilar malaklar vaslin.

Xazon qilsa umrin kim vayronda,  
Jannatda yashasam der koshonada.

Olam ichra bir bor kim chekar zahmat,  
Evaziga tilar ming bitta rahmat.

Mo‘minlar ming ehson agar olsalar,  
Gunohkorlar armon bilan qolsalar,

Nahot gunohlarin kechirmaysan hech,  
Lutfing sharobidan ichirmaysan hech?!

Lutfing ummoni gar limmo-lim bo‘lar,  
Nahot bahra olmay kimlardir o‘lar?

Tashnalarga befarq qarab turmagin,  
Lutfing ummonidan yiroq surmagin.

Yolvoraman qo‘lim ko‘ksimga bosib,  
Bu ish emas hech sen uchun munosib.

Kimki bo‘lsa gar har qancha gunohkor,  
Marhamat, lutfingga shuncha sazovor.

Yayrasa jannatda bor taqvodorlar,  
Do‘zax ichra kuysa bor gunohkorlar.

Jannat ichra qolmay ular armoni,  
Do‘zax ichra yonsa bularning joni,

Lutfu karam ganjin, aytgin, netarsan,  
Bu durlarni kimga tortiq etarsan?

Necha ming muhtaju asiru gado,  
Gunoh qilib bo‘lgan yuzlari qora,

Lutfu karamingdan gar bo‘lsa judo,  
Senga yarasharmi, ey qodir Xudo!

Muhtojlarga yozgin to‘kin dsturxon,  
Qorni to‘qni shartmas qilishing mehmon.

Ekinlar chanqog‘in qilmasa gar daf‘,  
Dengiz uzra yoqqan yomg‘irdan ne naf?

Nonni berish kerak faqat ochlarga,  
To‘nni berish kerak yalang‘ochlarga.

Barcha elga mudom qilgaysan karam,  
Sendan umidvorlar ko‘ngli xotirjam.

Yo Rab, marhamating ummonday toshsa,  
Najot istab barcha osiylar shoshsa,

Gunohlarin garchi hech poyoni yo‘q,  
Rahm qilmasliging hech imkoni yo‘q.

Lutfing darvozasin keng qilib ochsang,  
Gunohkorlar barcha aybidan kechsang,

Barcha olam ahli bo‘lsa muhtaram,  
Mahrum qilma sira Navoiyni ham.

Huru jannatni hech qilmasman havas,  
Bandam desang, yo Rab, shuning o‘zi bas.